



**Usmon QALANDAROV,**

*Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i,*

*O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O'zbekiston*

*E-mail: [usmon-art@mail], ORCID: 0009-0007-6928-5015*

*PhD, dotsent B.Raximov taqrizi asosida*

### PHENOMENON OF THEATRICAL ART: AESTHETIC, SPIRITUAL AND COMMUNICATIVE ASPECTS

Annotation

This article analyzes the phenomenon of theatrical art as an integrative form of aesthetic perception, spiritual experience, and social communication in human culture. It examines how theatrical art, through its aesthetic, spiritual, and communicative aspects, contributes to the development of students moral-ethical competence. Drawing on the philosophical ideas of Plato, Aristotle, Kant, and Mill, as well as modern pedagogical approaches, the article substantiates that theatre functions not only as a cultural event but as a pedagogical environment for shaping students inner values and social responsibility.

**Key words:** Theatrical art, aesthetic perception, spiritual competence, moral education, theatre pedagogy, communicative competence, Stanislavski, catharsis, higher education, axiological approach.

### ФЕНОМЕН ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА: ЭСТЕТИЧЕСКИЙ, ДУХОВНЫЙ И КОММУНИКАТИВНЫЙ АСПЕКТЫ

Аннотация

В данной статье театральное искусство анализируется как интегративная форма эстетического восприятия, духовного опыта и социальной коммуникации в культуре человечества. Рассматривается, как театральное искусство через свои эстетические, духовные и коммуникативные аспекты способствует развитию нравственно-этической компетентности студентов. На основе философских идей Платона, Аристотеля, Канта и Милля, а также современных педагогических подходов обосновывается, что театр функционирует не только как культурное мероприятие, но и как педагогическая среда для формирования внутренних ценностей и социальной ответственности студентов.

**Ключевые слова:** Театральное искусство, эстетическое восприятие, духовная компетентность, нравственное воспитание, театральная педагогика, коммуникативная компетентность, Станиславский, катарсис, высшее образование, аксиологический подход.

### TEATR SAN'ATI FENOMENI: ESTETIK, MA'NAVIY VA KOMMUNIKATIV JIHATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada teatr san'ati insoniyat madaniyatida estetik idrok, ma'naviy tajriba va ijtimoiy muloqotning integrativ shakli sifatida tahlil etiladi. Teatr san'atining estetik, ma'naviy va kommunikativ jihatlarini orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni o'rganiladi. Platon, Aristotel, Kant va Millning falsafiy g'oyalari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida teatrning nafaqat madaniy tadbir, balki talabalarning ichki qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik muhit ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlari:** Teatr san'ati, estetik idrok, ma'naviy kompetentlik, axloqiy tarbiya, teatr pedagogikasi, kommunikativ kompetentlik, Stanislavski, katarsis, oliy ta'lim, aksiologik yondashuv.

**Kirish.** Teatr san'ati insoniyat madaniyatida estetik idrok, ma'naviy tajriba va ijtimoiy muloqotning o'ziga xos integrativ shakli sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat sahnaviy ijro jarayoni, balki shaxs ongiga, hissiyotiga va axloqiy qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab madaniy-pedagogik tizimdir. Shu sababli teatr san'atini talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini shakllantirish jarayonida muhim nazariy va amaliy resurs sifatida talqin etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi strategik maqsadlarida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida insonning intellektual va ma'naviy rivojlanishi milliy taraqqiyotning asosi sifatida belgilangan. Shu kontekstda teatr san'atining pedagogik imkoniyatlarini oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi teatr san'atining estetik, ma'naviy va kommunikativ jihatlarini falsafiy-pedagogik tahlil qilish hamda uning talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishdagi rolini asoslashdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Falsafiy tafakkur tarixida san'at, xususan teatr, insonning ichki dunyosini shakllantirish va jamiyat axloqiy barqarorligini ta'minlash vositasi

sifatida ko'rib chiqilgan. Antik davr mutafakkiri Platon san'atning tarbiyaviy imkoniyatlarini ijtimoiy muvozanat bilan bog'lab, estetik ta'sir orqali shaxs axloqini yo'naltirish mumkinligini ta'kidlaydi [2]. Uning fikricha, badiiy obrazlar inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, axloqiy ideallarni ongda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aristotel esa axloqiy fazilatlar amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini asoslab, san'atni hissiy tajriba va ijtimoiy xulq o'rtaqidagi bog'lovchi omil sifatida baholaydi. Uning "Poetika" asarida teatrning asosiy funksiyasi sifatida katarsis (poklanish) tushunchasi ilgari surilgan [4]: tragediya tomosbida hamdardlik va qo'rquv hissini uyg'otish orqali uni ma'naviy nuqsonlardan tozalaydi.

Grammatas teatrni madaniy hodisa sifatida o'rganib, uning jamiyatdagi axloqiy va kommunikativ vazifasini asoslaydi [3]. V. Davlatov va T. Karimov tadqiqotlarida talabalar qadriyat yo'nalishlari va pedagogik muhit o'rtaqidagi aloqa tahlil etiladi [5]. A. Jamolov va R. Karimov zamonaviy falsafa va axloq masalalarini ko'rib chiqqan holda, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar [7].

M.O. Kayumov tomonidan tayyorlangan o'quv-metodik qo'llanmada teatr pedagogikasida rol va spektaklni tahlil qilishning samarali usullari bayon etilgan [1]. R.D. Norqobilova talaba

faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilish masalasini o'rgangan [9]. V.A. Berdiev pedagogik tadqiqotlar metodologiyasini tahlil qilib, amaliy-eksperimental tadqiqot o'tkazish xususiyatlarini belgilagan [10].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda induktiv va deduktiv tahlil usullaridan foydalanilgan. Mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar o'rganildi; qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va aksiologik tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Platon, Aristotel, Kant va Stanislavski ta'limotlari, shuningdek zamonaviy teatr pedagogikasi tashkil etadi.

Tadqiqot manbalari sifatida falsafiy klassik asarlar (birlamchi manba), pedagog-olimlarning ilmiy maqolalari (ikkilamchi manba) hamda O'zbekistondagi teatr pedagogikasiga oid metodik qo'llanmalar xizmat qildi. Tadqiqotning axloqiy tamoyillari: manbalarga havolalar to'liq va aniq ko'rsatildi, mavjud ilmiy yondashuvlarga tanqidiy baho berildi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur falsafiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy kompetentlik nazariy bilimlar majmuasi emas, balki shaxsning estetik idrok, emotsional tajriba va ijtimoiy muloqot orqali orttiradigan kompleks sifatidir. Aynan shu jihat teatr san'atining pedagogik salohiyatini ochib beradi. Teatr tomoshasi jarayonida talaba nafaqat voqealarni kuzatadi, balki sahnaviy obrazlar orqali axloqiy dilemmalarni his qiladi, baholaydi va ularga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi [3].

Estetik nuqtai nazardan teatr san'ati badiiy obraz, aktyorlik ijrosi, sahna harakati va dramaturgik tuzilma uyg'unligida namoyon bo'ladi. Ushbu elementlar tomoshabinning hissiy idrokini faollashtirib, go'zallikni anglash, dramatik ziddiyatlarni tushunish va insoniy munosabatlarni baholash qobiliyatini rivojlantiradi [3].

Ma'naviy jihatdan teatr san'ati shaxsning ichki dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Sahna orqali ifodalangan insoniy kechinmalar, mas'uliyat, vijdon, sadoqat va erkinlik kabi tushunchalar talabaning axloqiy ongida qayta talqin qilinadi [6]. Natijada talaba axloqiy me'yorlarni tashqi talab sifatida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qabul qila boshlaydi.

Kommunikativ jihatdan teatr san'ati jamoaviy faoliyatga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Spektakl tayyorlash jarayoni talabalardan o'zaro hamkorlik, mas'uliyatni bo'lishish, kelishuv va empatiya ko'nikmalarini talab etadi. B.Jamolovning fikricha, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida teatr san'ati "ijtimoiy laboratoriya" vazifasini o'taydi [7].

Immanuel Kantning "kategorik imperative" nazariyasiga ko'ra, axloqiy harakat insonning ichki qonuniyatiga aylanishi lozim [6]. Teatr pedagogikasi aynan shu nuqtada falsafa bilan tutashadi: talaba rol ustida ishlash jarayonida o'z qahramonining axloqiy tanlovini tahlil qiladi va bu orqali o'zining shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Konstantin Stanislavski ta'limotiga ko'ra, sahnadagi ishonchli harakat va ichki erkinlik aktyorning ruhiy va axloqiy tayyorgarligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu holat teatr faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada kuchaytiradi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida teatr mashg'ulotlarini shaxsni kompleks rivojlantirish vositasi sifatida qo'llashga ilmiy asos yaratadi [9].

Teatr mashg'ulotlarida qo'llaniladigan uchta asosiy komponent – aktyorlik psixotexnikasi, sahna plastikasi va sahna nutqi – talabaning nafaqat tashqi mahoratini, balki ichki intizomini ham shakllantiradi [10]. Sahnadagi harakat organik qonuniyatlarga asoslanishi kerak; agar talaba qahramonining maqsadini anglamasa, uning ijrosi sun'iylashadi.

**Xulosa va takliflar.** Teatr san'ati oliy ta'lim tizimida faqat madaniy tadbir yoki ijodiy to'garak shaklida emas, balki talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik muhit sifatida tashkil etilishi lozim. Aynan teatr faoliyatining estetik, ma'naviy va kommunikativ jihatlari uyg'unligi talabaning axloqiy mustaqilligi, jamoaviy mas'uliyati va ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantirishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi: birinchidan, teatr san'ati Platon, Aristotel va Kant tomonidan asoslangan falsafiy tamoyillar asosida shaxsning axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi; ikkinchidan, teatr pedagogikasining estetik, ma'naviy va kommunikativ jihatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning uyg'unligi ta'limiy samaradorlikni oshiradi; uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida teatr mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Taklif sifatida quyidagilar ilgari suriladi: oliy ta'lim muassasalarida teatr pedagogikasiga asoslangan maxsus kurs yoki modul joriy etish; teatr mashg'ulotlarini baholashda ma'naviy-axloqiy kompetentlik ko'rsatkichlaridan foydalanish; teatr san'ati va axloqiy tarbiya integratsiyasini o'rganuvchi keyingi empirik tadqiqotlar o'tkazish.

#### ADABIYOTLAR

1. Kayumov M.O. "Pedagogika she'riyati. Spektakl va rolni samarali tahlil qilish haqida". – Toshkent, 2020. – 78 b.
2. Platon. The Republic. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 45–60-betlar.
3. Grammatas T. The Theater as Cultural Phenomenon. – Athens: Papazisis Ed., 2015. – 5–24-betlar.
4. Aristotel. Nicomachean Ethics. – London: Penguin Classics, 2004. – 20–38-betlar.
5. Davlatov V., Karimov T. "Talabalar va talabalarning qadriyat yo'nalishlari". – Toshkent, 2019. – 23 b.
6. Kant I. Fundamentals of the Metaphysics of Morals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 34–48-betlar.
7. Jamolov A., Karimov R. Zamonaviy falsafa va axloq. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 78–92-betlar.
8. Sharifjon T.A. va boshq. Ta'lim-tarbiya tizimi va o'qituvchilar faoliyatida psixologik xizmatning ahamiyati // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2022. – T. 1. – №11. – S. 57–60.
9. Norqobilova R.D. Talaba faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi // INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – S. 564–568.
10. Berdiev V.A. Pedagogik tadqiqotlar olib borishning ayrim xususiyatlari. – Toshkent, 2022. – 14 b.